

TALABALARDA OGOHLIK VA FIDOIYLIK MADANIYATINING MAZMUN-MOHİYATI HAMDA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ramazonova Muhayyo Sunnatullo qizi

Oriental universiteti Pedagogika yoʻnalishi 1-bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda ogohlik va fidoiylilik madaniyatining mazmun-mohiyati, uning pedagogik ahamiyati hamda yoshlar tarbiyasidagi oʻrni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Globallashuv va axborotlashuv jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitet, vatanparvarlik, masʼuliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, ogohlik va fidoiylilik madaniyatini rivojlantirishda raqamli madaniyat, axloqiy tarbiya, media savodxonlik hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning oʻrni ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: ogohlik madaniyati, fidoiylilik, talaba-yoshlar, vatanparvarlik, mafkuraviy immunitet, maʼnaviy tarbiya, axloqiy madaniyat, raqamli madaniyat, media savodxonlik, pedagogik texnologiyalar, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the essence and significance of the culture of vigilance and dedication among students, its pedagogical significance, and its role in the upbringing of youth. The relevance of forming students' ideological immunity, patriotism, responsibility, and civic stance in the process of globalization and informatization is highlighted. It also reveals the role of digital culture, moral education, media literacy, and modern pedagogical technologies in developing a culture of awareness and dedication.

Keywords: culture of awareness, dedication, student youth, patriotism, ideological immunity, spiritual education, moral culture, digital culture, media literacy, pedagogical technologies, civic position, social activity.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot oqimlari keskin kuchaygan davrda talaba-yoshlarda ogohlik va fidoiylilik madaniyatini shakllantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda yoshlarning nafaqat bilimli, balki mafkuraviy tahdidlarga nisbatan hushyor, milliy qadriyatlarga sodiq, Vatan ravnaqiga daxldorlik hissiga ega boʻlgan shaxs sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va turli axborot platformalarining hayotimizga chuqur kirib kelishi yoshlar ongiga taʼsir koʻrsatish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Shu jihatdan talabalarda ogohlik madaniyatini shakllantirish, ularni turli mafkuraviy va axborot xurujlaridan himoya qilish, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuv koʻnikmalarini rivojlantirish bugungi taʼlim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Ilmiy manbalarda ogohlik tushunchasi shaxsning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va axboriy jarayonlarga nisbatan ongli munosabat bildiradi, voqea-hodisalarni tahliliy idrok etishi hamda zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Xususan, axborot xurujlariga qarshi yoshlarda ogohlik tuyg'ularini tarbiyalashga oid tadqiqotlarda yoshlarning axborot madaniyati, media savodxonligi va ma'naviy barqarorligini rivojlantirish masalalari alohida yoritilgan [3]. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi sharoitida esa yoshlarning ongini turli zararli ta'sirlardan asrash, ularda sog'lom dunyoqarash va mustaqil pozitsiyani shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi [4]. Bu esa ogohlik madaniyatining nafaqat individual, balki ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Fidoiylilik madaniyati esa talabaning Vatanga sadoqat, jamiyat oldidagi mas'uliyat, burchga vafodorlik va faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etuvchi muhim ma'naviy sifat sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlarda vatanparvarlik va fidoiylilik tuyg'ulari yoshlarning ma'naviy barkamolligi, axloqiy kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotidagi faol ishtiroki bilan uzviy bog'liqligi qayd etilgan [7]. Shuningdek, fidoiylilik shaxsning yuksak maqsad yo'lida fidokorona harakat qilishi, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'ya bilishi bilan tavsiflanadi [8]. Shu sababli oliy ta'lim tizimida talabalarni vatanparvarlik, mas'uliyat va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda talabalarda ogohlik va fidoiylilik madaniyatini rivojlantirish jarayoni raqamli madaniyat, axloqiy tarbiya va fuqarolik kompetensiyalari bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Raqamli muhitda axborotdan to'g'ri foydalanish, internet xavfsizligiga rioya qilish, media savodxonlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yoshlarning ongli hamda mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi [5]. Shu bilan birga, axloqiy madaniyatning shakllanishi talabalarda odob, mas'uliyat, insonparvarlik va ijtimoiy burch hissini rivojlantirish orqali ularning ma'naviy kamolotini ta'minlaydi [6].

Xalqaro pedagogik tajribalar ham talabalarda fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat va faol ishtirokni shakllantirishda interfaol pedagogik yondashuvlarning samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, ishtirok etishga asoslangan pedagogik texnologiyalar talabalarning tanqidiy fikrlashi, hamkorlikda ishlashi, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmasligi hamda fuqarolik mas'uliyatini his etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ogohlik va fidoiylilik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlardan samarali foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ogohlik va fidoiylilik madaniyatini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat va faol ishtirokni rivojlantirishda interfaol pedagogik yondashuvlarning samaradorligi asoslab berilgan [1]. Mahalliy tadqiqotlarda esa

yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularda axborot madaniyati va ogohlik tuyg'ularini shakllantirish masalalari keng yoritilgan [2; 3; 4].

Shuningdek, ayrim ilmiy ishlarda talabalarda raqamli madaniyat, axloqiy tarbiya va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishning pedagogik jihatlari tahlil qilingan [5; 6; 7]. Rustamov Y.E. tadqiqotida esa fidoiylik, burch va mas'uliyat tushunchalari yoshlarning vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasi bilan bog'liq holda izohlangan [8]. Biroq mavjud tadqiqotlarda talabalarda aynan ogohlik va fidoiylik madaniyatini kompleks pedagogik tizim sifatida shakllantirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu jihatdan mazkur mavzu ilmiy-pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ogohlik madaniyati talabaning atrof-muhitdagi ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlarga nisbatan ongli munosabat bildira olishi, axborotlarni tahliliy qabul qilishi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarda yoshlarning axborot madaniyatini rivojlantirish, ularda media savodxonlikni shakllantirish hamda zararli axborot oqimlariga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilgan [3]. Ayniqsa, globallashtirish jarayonida yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ortib borayotgani ularda ogohlik tuyg'ularini kuchaytirishni talab etmoqda [4].

Talabalarda ogohlik madaniyatini shakllantirishda ta'lim muassasalari, oila va ijtimoiy muhitning o'zini muhim hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, interfaol mashg'ulotlar, munozara va treninglar talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xorijiy tajribalar ham ishtirok etishga asoslangan pedagogik yondashuvlar yoshlarning fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faolligi va ongli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi [1].

Fidoiylik madaniyati esa shaxsning Vatanga sadoqat, jamiyat manfaatlariga daxldorlik, mas'uliyat va fidokorlik kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy fazilatidir. Fidoiylik insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishi, xalq va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya bilishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan talabalarda fidoiylik madaniyatini shakllantirish ularda vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy tadqiqotlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholangan [7]. Shuningdek, yoshlarda burch, mas'uliyat va fidoiylik sifatlarini rivojlantirish ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi [8]. Talabalarda fidoiylik madaniyatini shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ajdodlar jasorati haqidagi bilimlarning o'zini alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan yoshlar jamiyat taraqqiyotiga befarq bo'lmaydi.

Bugungi raqamli muhitda talabalarda ogohlik va fidoiylik madaniyatini shakllantirish raqamli madaniyat va axloqiy tarbiya bilan ham uzviy bog'liqdir.

Raqamli madaniyat talabani internetdan to'g'ri foydalanishi, axborot xavfsizligiga rioya qilishi, media mahsulotlarni tanqidiy baholashi va virtual muhitda mas'uliyatli harakat qilishini anglatadi [5]. Shu bilan birga, axloqiy madaniyat insonning odob-axloq me'yorlariga amal qilishi, jamiyatda o'zini tutish madaniyatiga ega bo'lishi va ma'naviy barkamollikka intilishi bilan tavsiflanadi [6].

Talabalarda ogohlik va fidoiyluk madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Xususan, muammoli ta'lim, loyiha metodi, debat, keys-stadi va trening texnologiyalaridan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini oshiradi. Bunday metodlar yoshlarning jamiyatlardagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, muammolarni tahlil qilish va ularga nisbatan mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida talabalarda ogohlik va fidoiyluk madaniyatini shakllantirishning pedagogik ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. O'tkazilgan kuzatishlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi globallashtirish va axborotlashuv jarayonida yoshlarning ma'naviy barqarorligi, mustaqil fikrlashi hamda mafkuraviy immunitetini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, internet tarmoqlari va ijtimoiy media vositalari orqali tarqalayotgan turli zararli g'oyalar talabalarning dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi [3; 4].

Tahlillar natijasida talabalarda ogohlik madaniyatining shakllanish darajasi ularning axborotdan foydalanish madaniyati, tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog'liqligi kuzatildi. Raqamli muhitda faol bo'lgan talabalarning aksariyatida axborotni tez qabul qilish ko'nikmalari rivojlangan bo'lsa-da, ayrim hollarda media savodxonlik va axborotni tahliliy baholash kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmagani ma'lum bo'ldi [5]. Bu esa ta'lim jarayonida media madaniyat, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida fidoiyluk madaniyati talabalarning vatanparvarlik, mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Talabalarda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ajdodlar jasorati haqidagi bilimlarni mustahkamlash ularda Vatanga sadoqat va daxldorlik hissini kuchaytirishi kuzatildi [7]. Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, interfaol seminar va treninglar yoshlarda fidoiyluk, burch va mas'uliyat kabi sifatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi [8].

Xulosa qilib aytganda, talabalarda ogohlik va fidoiyluk madaniyatini shakllantirish bugungi globallashtirish va axborotlashuv sharoitida muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki yoshlarning ma'naviy barkamolligi, ijtimoiy faolligi, mafkuraviy immuniteti hamda Vatanga daxldorlik hissi jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois oliy ta'lim muassasalarida talabalarda ogohlik va fidoiylilik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni tizimli ravishda takomillashtirish, zamonaviy innovatsion metodlardan samarali foydalanish hamda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va yurt taraqqiyotiga daxldor yosh avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahruf C. Shohel, M., Ashrafuzzaman, Md., Ahmed, S., Tasnim, N., Akter, T., Rakibul Islam, G. M., Abu Bakar Siddik, M., & Rahman Mitu, S. (2024). Participatory Pedagogical Approaches in Higher Education: Understanding from the Practices in Bangladesh, the UK and the USA. In Education and Human Development. IntechOpen. <https://doi.org/10.5772/intechopen.114070>
2. "O'zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrash" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Denov, 2023.
3. Raxmatova F.O. Axborot xurujlariga qarshi yoshlarda ogohlik tuyg'ularini tarbiyalash masalalari: magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: TDPU, 2023. – 96 b.
4. Xalimbayev D.U. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi sharoitida yoshlarda ogohlik tuyg'ularini tarbiyalash masalalari: magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: TDPU, 2023. – 90 b.
5. Jumanazarova O.M., Sattarova S.B. Talabalarda raqamli madaniyat asoslarini shakllantirishning ahamiyati // *Modern Education and Development*. – 2025. – № 27, qism 2. – B. 140–150.
6. Tursunova M.S. Talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning ilmiy pedagogik jihatlari // *International Journal of Science and Technology*. – 2025. – Vol. 2, Issue 03. – B. 240–245. – DOI: 10.70728/tech.v2.i03.038.
7. Xudoyqulov A.O. Talabalarda vatanparvarlik tarbiyasi orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2024. – Vol. 5, Issue 3. – B. 94–101.
8. Rustamov Y.E. Kursantlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish omillari // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2022. – Vol. 2, Issue 1. – B. 226–233.